

ALISHER NAVOIY IJODIGA YANGICHA QARASH SHARX VA TALQIN MUAMMOLARI

Odilova Sitora

Navoiy innovatsiyalar instituti talabasi

ANNOTATSIYA

O'zbek madaniyat siymosi, Alisher Navoiy hayot yo'lining boshlanish, shoir tahallusi, g'azal oshiradi va Lutfiy suhbatini, ijod og'ushida Buyuk tarix ziynati.

Kalit so'zi: Navoiy, soz va kuylar, Qori navo, rasm bog'i davlat ona Mir "Nizom", "Foniy" she'r va g'azal kelib qoshimga, to'xtatmadi. Xamsa, devon, Hiloliya, Ixlosiya, Xolosiya, Navoiy haqida fikr.

O'zbek madaniyat siymosi, Alisher Navoiy o'zbek madaniyati, adabiyoti tarixidagi ulug' siymolardan biridir. U o'zining ijodi, talanti, hayotini xalqqa bag'ishlagan insondir. U lirik shoir, epik shoir, adabiyotshunos olim tarjimon sifatida madaniyatimiz tarixida alohida o'rin tutadi.

Shuningdek, Navoiy soz chalishni bilgan kuylar bastalangan hozirgacha yashayotgan "Qori navo" kuyi Navoiy tomonidan yaratilgan

Navoiy rasm ham chizgan bizgacha yitib kelgan.

Zarnjirband sher rasmi Navoiy tomonidan chizilgan. Shak shubhasiz bu ishlar uning san'at madaniyatining har jabhasida qiziqishining yaqqol namoyonidir. Uning siymosi tarixdan bizgacha, bizdan kelajakka madaniyat o'chog'i bo'lib porlaydi.

Navoiy 1441 yil 9 fevral Hirot bog'i davlatxona degan joyda tug'ildi. Otash G'iyosiddin Muhammad (kitoblarda G'iyosiddin kichkina, G'iyosiddin baxshi deb yozadilar) Onasi Abu Said Changning qizi bo'lib podsho saroyida enagalik qilgan. Shu sabab u Navoiy Husayn Boyqaro bilan Ko'kaldosh hisoblanadi. Alisher 3-4 yoshida she'r yodlay boshlaydi. 7-8 yoshida she'r yozgani ma'lum. Bu she'rlar shoir aytishicha "turk alfozi bilan" ya'ni turkcha (o'zbekcha) bitilgan.

Navoiy to'liq ismi Mir Nizomiddin Alisher Navoiy deb yuritiladi. "Mir" siz amir so'zining qisqargan shakli bo'lib shoh saroyidagi amal nomidir. "Nizom" so'zi yo'l-yo'riq qoida demakdir. Navoiy o'z zamonining yirik din vakili edi. G'iyosiddin Muhammad o'g'liga Alisher deb nom qo'yar ekan uni payg'ambarimiz sahobalaridan biri-Aliga o'xshashini orzu qildi.

"She'r" so'zi ham Aliga nisbatan olingan. Payg'ambarimiz Alining dushmanlar bilan bo'lgan janglardagi jonvozigini ko'rib: "Ali-Oллоhning she'ri"- der edi. Navoiy shoirning taxallusi bo'lib "navo" so'zidan olingan.

Bu soʻz zamirida “kuy”, “baxt”, “bahra”, sayrash maʼnolari bor. Shoir oʻz taxallusiga “bahra” soʻzini asos qilib olgan.

Ikkinchi tahallusi “Foniy” boʻlib “oʻtkinchi” maʼnosini beradi.

Gʻazal oshuftasi Navoiy 15 yoshlarida oʻz sheʼrlari bilan zamonasining mashhur shoirlari diqqatini tortdiyu Xondamirning yozishicha sheʼrlari bilan endigina tanilib boshlagan Alisher oʻz davrining dongdor shoiri Mavlono Lutfiy xizmatiga boradi. Mavlono undan sheʼr oʻqishni iltimos qiladi Alisher oʻzining

Orazin yopgʻoch, koʻzimdan sochilar har lahza yosh,

Boʻylakim, paydo boʻlur yulduz nishon boʻlgʻoch quyosh.

Matlaʼi bilan boshlanadigan gʻazalini oʻqiydi. Sheʼrdan hayratga tushgan keksa Lutfiy shunday deydi. “Vallohu, agar Muyassar boʻlsa edi oʻzumning forsiy va turkiy tillardagi 12 ming baytimni shu gʻazalga almashtirdim.

Navoiy 60 yillarning ikkinchi yarmida Samarqandda yashaydi. Navoiy shu yillari shoir sifatida juda katta shuhrat topadi. 1465-1466 yillarda uning muhlislari sheʼrlarni toʻlab devon tuzdilar. Bu devon “Ilk devon” nomi bilan mashhur.

1469 yilning aprelida ramazon hayiti kunlarida shoir doʻsti Husayn Bayqaroga bagʻishlab “Hiloliya” qasidasini taqdim etadi.

Hirotning eng goʻzal joylaridan birida, Injil arigʻi yoqasida Navoiy tashabbusi bilan “Ixlosiya” madrasasi qad koʻtaradi. Uning yonida “Xalosiya” xonaqohi joy oldi. 1476-1483 yillarda 2 devon “Navodir un-nihoya” (nihoyatsiz nodirliklar) maydonga keldi. Ganjaviyga xavas qilib 1483 yil Xamsa asarini boshlab 1485-yilda yakunladi. 1490-yil Navoiyning eng katta xizmatlaridan biri “Xazoniy ul Maoniy” (Maʼnolar xazinasi)ni tuzishi boʻldi. 1492-1498 yillarda tartib qilingan 4 qism devondan iborat bu ulkan sheʼriy kulliyot shoirning turkiy tilda yozilgan deyarli barcha lirik sheʼrlarini qamrab olgan edi. Uning ijodga shoʻngʻishi va sevgi muhabbati barcha mansab pillapoyalaridan ustun edi. U bor vujudi bilan ijodga shoʻngʻib boʻlgandi va umrini bagʻishladi.

Navoiy haqida Boburning fikrlari “Alisherbek naziri yoʻq kishi edi”

Turkiy til bila to sheʼr aytibdurlar.

Hech kim ancha koʻp va xoʻp aytgan emas. Olti masnaviy kitob nazm qilishdir, beshi “Xamsa” javobid, yana biri “Mantiq ut-tayr” vaznida “Lison ut-tayr” otliq. Yana musiqiyda yaxshi namolar bogʻlabdur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur.

Islom Karimov agar bu zotni avliyo desak, u-avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak-shoirlarning sultonidir. Inson qalbini quvonchu qaygʻusini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi.

XULOSA

Shuni quvonch bilan aytish joizki Alisher Navoiyning boy ser qirra ijodi faqat o‘zbek adabiyotida emas balki jahon adabiyotida ham salmoqli o‘ringa ega. Navoiy ijodi o‘zining haqiqiy qadr-qimmatini mustaqil O‘zbekistonda topdi deya olamiz. Yurtboshimiz tashabbusi bilan 1991 yil Alisher Navoiy yili deb atalgan edi. Mamlakatimiz bu Ulug‘ zot nomi bilan mustaqillik davriga qadam qo‘ydi.

Bunda o‘ziga xos Ramziy ma’no bor. Zero Navoiy o‘zining hayoti va faoliyatini yurt mustaqilligi va tinchligi O‘zbek tilining, Nash’u namosi uchun baxshida etgan edi. Navoiy bolaligidan to umri yakuniga qadar ijod bilan yashagan buyuk siymodir uning takrorlanmas asarlari kecha bugun va kelajakni gavdalantirgan nodir yodgorlik. Biz uni qancha o‘rgansak uning yangi qirralari ochilib kelaveradi.

Olohg muhabbat vatanga muhabbat yorga e’tirof, do‘stga sodiqlik, kasbga e’tibor, martabaga e’tirof odamlarga muomila faqirlarga g‘amxo‘rlik, halollik barchasi Navoiyda mujassam. Farzandlarimiz bizdan ilmi bo‘lishini xohlasak Navoiyni o‘rganaylik. Navoiy izdoshlari hamisha Navoiy bilan gavdalangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. B.Jalilov va boshqalar O‘zbek adabiyoti T 2006
2. B.Qosimov va boshqalar O‘zbek adabiyoti 10-sinf uchun darsliklar T-2001
3. N.Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi. O‘qituvchi T-1965
4. Q.Yo‘ldashov va boshqalar adabiyot 7-sinf uchun darslik T-2003
5. N.Erkanboyeva Adabiyot fanidan javoblar T-2015
6. I.Karimov Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch